

SPORT O'YINLARINING TARIXIY RIVOJLANISHIGA DOIR AYRIM NAZARIY VA ESTETIK QARASHLAR

Xamroyev Behruz Xalimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat fakulteti dotsenti v.b.

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.068>

Annotatsiya: Hozirgizamonfanixalqo 'yinlarini ilmiy jihatdan vainsoniyatsivilizatsiyasining madaniy merosi sifatida saqlab qolish, tarixiy pedagogik muammolar doirasida o'rganish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarida xalq o'yinlarining rivojlanish tendensiyalari, mifologiyasi, transformatsiyasi, tarixiy-madaniy va etnik xususiyatlarini etnografik aspektda tadqiq etish hamda dunyo ilmiy jamoatchiligiga va yoshlarga targ'ibot etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada, Sport o'yinlarining tarixiy genezisi, taraqqiyot tamoyillari va zamonaviy sport o'yinlari takomillashuvidagi ahamiyati asosida ta'lim-tarbiya tizimi omillari va ularning yangi avlod sport madaniyati taraqqiyotiga ta'siri qiyosiy-tipologik pozitsiya nuqtai-nazaridan aniqlashtirilgan:

Kalit so'zlar: Sport o'yinlari, tarixiy genezis, modernizatsiya, rivojlanish tendensiyalari, mifologiya, transformatsiya, etnografiya, taraqqiyot tamoyillari, zamonaviy sport o'yinlari, ta'lim-tarbiya, tizim, sport madaniyati, qiyosiy-tipologik pozitsiya, nuqtai-nazar.

НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СПОРТИВНЫХ ИГР

Хамроева Бехруза Халимовича

Бухарский государственный педагогический институт

доцент факультета физической культуры

Аннотация: Современная наука показывает, насколько актуальны научное и культурное наследие народных игр, изучение их в рамках исторических педагогических проблем. В процессе социальной модернизации возникает необходимость изучения в этнографическом аспекте тенденций развития, мифологии, трансформации, историко-культурных и этнических особенностей народных игр и пропаганды их мировой научной общественности и молодежи. В данной статье на основе исторического генеза, принципов развития и совершенствования современных спортивных игр определены факторы системы образования и воспитания и их влияние на развитие спортивной культуры нового поколения с точки зрения сравнительно-типологической позиции:

Ключевые слова: спортивные игры, исторический генезис, модернизация, тенденции развития, мифология, трансформация, этнография, принципы развития, современные спортивные игры, образование, система, спортивная культура, сравнительно-типологическая позиция, точка зрения.

SOME THEORETICAL AND AESTHETIC VIEWS ON THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF SPORTS GAMES

Khamroev Bekhruz Khalimovich

Bukhara State Pedagogical Institute

Associate Professor, Department of Physical Education

Abstract: Modern science shows how relevant the scientific and cultural heritage of folk games is, their study within the framework of historical pedagogical problems. In the process of social modernization, there is a need to study in the ethnographic aspect the trends in development, mythology, transformation, historical, cultural and ethnic characteristics of folk games and the propaganda of their world scientific community and youth. In this article, based on the historical genesis, principles of development and improvement of modern sports games, the factors of the education and upbringing system and their influence on the development of a

new generation of sports culture from the point of view of a comparative typological position are determined:

Key words: sports games, historical genesis, modernization, development trends, mythology, transformation, ethnography, development principles, modern sports games, education, system, sports culture, comparative-typological position, point of view.

KIRISH: Jahon xalqlari qatorida o‘zbek millatining ham o‘ziga xos yashash tarzi, etnografiyasi va etnomadaniy xususiyatlari i mavjud. Xalq o‘yinlarida ma’lum bir xalqning folklori, milliy kiyim-kechaklari, raqs-harakatlari, xo‘jalik-madaniy an’analari va shu kabi qator etnopedagogik belgilari aks etgan. Xalq o‘yinlar sirasiga bir necha o‘yinlarning o‘nlab shakllari, ularni etnopedagogik tahlili milliy urf-odat, tamoyillarga ko‘ra tartib-qoidalari, etikasi, ramziy shakllari, sovrin va ularni topshirish tartiblari, har bir tamoshabin, mehmonlarga ko‘rsatiladigan ehtirom bilan bog‘liq udumlar tahlil qilinar ekan, bu yo‘nalishda sport o‘yinlarining usullari va tarbiyaviy mohiyatini yoritish alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta bugungi kunda yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga a’lovida ahamiyat berilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagи “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, PF-5368-son, 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish chor- tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son farmonlari, 2020-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4877-sonli qarorlari va sport faoliyatini takomillashtirishga oid qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishda dasturil amal bo‘lib xizmt qilmoqda.

O‘zbek milliy davlatchiligining turli tarixiy bosqichlarida o‘qitish va ta’lim-tarbiya jismoniy madaniyat va sport sohasi masalalarini o‘rganish pedagogika fanida hamma vaqt qiziqarli mavzulardan biri bo‘lib kelgan.

Bugungi kungacha ushbu mavzuga birmuncha yaqin tadqiqotlarni dunyo va rus olimlaridan Yu.S.Shodomiskiy, A.B.Sunik, V.Ya.Nepomnin, P.F.Lesgaft, N.V.Zismanlar amalga oshirgan[21; c-25., 22; c-32., 17; c-103., 8; c-120.].

Shuningdek o‘zbek olimlaridan R. Abdumalikov, X.A. Eshnazarov, A. Abdiyev, M.S.Axmatovalar [2; 3-13-b.] ushbu mavzu yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Lekin ushbu olimlar hozirgi milliy sport o‘yinlarining kelib chiqish tarixi, etnografik xususiyatlari, har bir sport turiga asos bo‘luvchi omillar tahlili va tasnifi yetarlicha qilinmagan.

ISHNING MAQSADI: Sport o‘yinlarining tarixiy genezisi, taraqqiyot tamoyillari va zamonaviy sport o‘yinlari takomillashuvidan ahamiyatini tahlil qilish.

TADQIQOT METODLARI: maqolani yozishda xronologik tizimlilik, davriylik, mantiqiy yondashuv, analiz va sintez, qiyosiy tahlil va adekvat holatda o‘rganishni ta’minalashga qaratilgan metodlar majmui qo‘llanildi: nazariy(tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik(so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar(ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash kabi).

NATIJALAR VA MUНОZARA: Xalq o‘yinlarini ilmiy jihatdan o‘rganish masalalari dastlab XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida tavsifiy xarakterda bo‘lgan bo‘lsada, o‘sha davr mualliflari voqeliklarni bevosita o‘zları kuzatganliklari, guvoh bo‘lganliklari sababli ular tomonidan yozib qoldirilgan asarlar hozirgi davr ilmiy tadqiqotlari uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Sovet davridagi olimlar o‘zlaridan oldingi tadqiqotchilarning ilmiy yutuqlariga tayangan holda yangi materiallar yig‘ib, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Mustaqillik davridagi tadqiqotlarda esa tom ma’noda milliy qadriyatlarni, an’analarni tiklash, jahondagi turli ilmiy maktablarning ilg‘or tajribalaridan foydalaniib, muammoga yangicha ilmiy-nazariy jihatdan yondashish kuzatiladi.

Qadimgi davrlarda ham ibtidoiy odamlar turli-tuman jonivorlar holati, hatti-harakatlariga taqlidqilib, muayyan o‘yinlarni o‘ylab topganlar. Bu davrdagi ovchilik o‘yinlari odatda totemistik va animistik qarashlar bilan aloqador bo‘lgan. Dastlab, ibtidoiy marosimlarning tarkibiy

qismi bo‘lgan totemistik raqs va o‘yin harakatlari keyinchalik ananaviy o‘yin hamda tomosha sanati asariga aylanib ketgan. Demak, ananaviy xalq o‘yinlarini tadqiq etish orqali qadimgi davrlarda yashagan ajdodlarimiz dunyoqarashini o‘rganish mumkin bo‘ladi. Xalqimizning ruhiy kechinmalari, moddiy va manaviy turmushi, milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi ananaviy o‘yinlar uch ming yillik tarix davomida sayqallanib kelgan manaviy qadriyatlarni avaylab-asrash borasidagi umumxalq harakatining tarkibiy qismidir. Xalqimizning ommaviy sayl-tomoshalari, marosimlari ham o‘yinlarsiz o‘tmaydi. Shu bois ananaviy xalq o‘yinlarini o‘rganish xalq ruhiyati va madaniy hayotining o‘ziga xos jihatlarini anglashga imkon beradi. O‘yinlarining tarixiy-genetik asoslari ochib berilmaganligi tufayli o‘yinlarning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti tamoyillari ham haligacha to‘liq o‘rganilmagan. Ananaviy xalq o‘yinlarining genetik tasnifi, o‘yinlarning ijtimoiy hodisasi sifatidagi yuzaga kelish tarixi va tadrijiy rivoji, o‘yin tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy elementlarning xususiyatlari va o‘yinlarning estetik tarbiya vazifalarini alohida ilmiy jihatdan tadqiq etish zarurligi mavzusining dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

O‘yinlarining tarixiy-genetik asoslari ochib berilmaganligi tufayli o‘yinlarning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti tamoyillari ham haligacha to‘liq o‘rganilmagan. Ananaviy xalq o‘yinlarining genetik tasnifi, o‘yinlarning ijtimoiy hodisasi sifatidagi yuzaga kelish tarixi va tadrijiy rivoji, o‘yin tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy elementlarning xususiyatlari va o‘yinlarning estetik tarbiya vazifalarini alohida ilmiy jihatdan tadqiq etish zarurligi mavzusining dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan, tarixan bir muhitda yashab, o‘tmish madaniyati bir zaminda vujudga kelgan, biroq ayni paytda mustaqil davlat bo‘lib yashayotgan respublikalarning tarixiy ildizlarini qidirib topish, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklash borasidagi intilishlarini hayotning o‘zi zaruriyat darajasiga ko‘tarmoqda.

Xalq o‘yinlari juda qadimiy va boy tarixga egadir. Ularning ildizlari insoniyat paydo bo‘la boshlagan ibridoiy davrlarga borib taqaladi. Xalq o‘yinlarining genetik asosi ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo‘lgan ibridoiy rituallar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Davrlar o‘tishi bilan bunday marosimlar tarkibidagi o‘yinlar o‘zining rituallik xususiyatini yo‘qotib, oddiy tomosha unsuri yoki ko‘ngilochar vositaga aylangan.

Taniqli olim U.Qoraboev o‘yin qadim zamonlardanoq insoniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin egallab kelganligini ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘lab, mehnat tajribalari bilan birga o‘yin-musobaqalarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqanligini quyidagicha izohlaydi [16; 6-7-b.].

Xalq o‘yinlarining muayyan bir qismi bevosita qadimgi odamning o‘z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, qadimgi hunarmandchilik, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi xalq o‘yinlarining kelib chiqishiga asos bo‘lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy manbalar sirasiga kiradi.

Turmush tarzi ajdodlarimizdan o‘z farzandlarini yaxshi chavandoz, “qirag‘ay mergan”, kuragi erga tegmaydigan pahlavon qilib tarbiyalashni taqazo etar edi. Shuning uchun, ot poyga, tirandozlik musobaqlari, olishuv-kurash, shuningdek, tuya, qo‘chqor, xo‘roz urishtirish qadimgan keng rusm bo‘lgan edi. Ana shu an’analalar asosida asrlar davomida xalq o‘yinlari mukammal tizimi shakllangan deb, aytish mumkin. Ishlab chiqarish kuchlarining tobora rivojlanishi, mehnat qurollarining takomillashuvi ibridoiy jamoa tuzumining so‘nggi bosqichlarida bolalarning ana shu mehnat qurollaridan oddiy turmush va unumli mehnatda kattalardek foydalana olmasligi ularga xos va mos bo‘lgan o‘yin turlarining shakllanishiga sabab bo‘lgan. Shu tufayli bolalar mehnat qurollariga o‘xshagan o‘yinchoq yasay boshlagan. Bolalar o‘yinining vositasi – o‘yinchoqlar ehtimol ana shu tariqa vujudga kelgan bo‘lishi mumkin.

O‘tmishda ota-bobolarimiz juda qadimgi davlatchilik an’analalariga ega bo‘lgan boy ma’naviy va moddiy yodgorliklarni meros qoldirishgan. Dovon (Farg‘ona) davlatini bir necha marta kelib zabt eta olmagan xitoyliklar bu yerdagi shaharlar, boy dehqonchilik madaniyati va

“samoviy ot”larni maqtal yozishgan. Ular chavandozlik, merganlik va yakka kurash usullarini yaxshi egallagan edilar [20; c-479.].

Shu o‘rinda N.Azizovning “Belbog‘li Turkiston kurashi” nomli asarida vengriyalik mashhur yozuvchi L.Kunning fikriga tayanib, farg‘onacha kurashning shakllanishi miloddan avvalgi III ming yillikka borib taqalishi haqidagi ma’lumotni keltirib o‘tish kerak. Olim Mesopotamiya hududidan topilgan bronzadan yasalgan ikki odamning kurashayotgan haykalchasini dalil qilib ko‘rsatar ekan, bu haykalning ko‘rinishi Farg‘ona kurash turida kurashayotganga o‘xshaydi, deb ta’kidlaydi [3; 5-6-b.].

Xalq o‘yinlaridan ov o‘yinlari ham o‘ziga xos tarixga ega bo‘lib, bunday o‘yinlarning tarixiy ildizlari ibridoiy odamlar turmush tarziga va hayotiga borib taqaladi. Bunday o‘yinlar ov oldi mashqi vazifasini o‘tab, o‘sha davrga xos kichik jiddiy tadbir shaklida uyuştilrilgan [16; 24-25-b.].

Ovchilik asosida chorvachilik shakllangan, keyinchalik bu o‘yinlar chorvador qabilalar orasida an’anaga aylanib qolgan. Ov o‘yinlarining bayram marosimlarida ruhiy va jismoniy tayyorgarlik, ko‘tarinki kayfiyatni vujudga keltirish mashqi sifatida an’anaga aylanib borganligi ilk madaniyat va san’atning rivojlanishi uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi.”Qobusnomada “Shikor qilsang ikki tariqada qilg‘ilkim, podshohlar ikki tariqada qilurlar; ba’zilari o‘z qo‘llari bilan qush solurlar va ba’zilar o‘z qo‘llari bilan qush solmaslar. Podshohlarning shikor qilishdan maqsadlari go‘sht emas, tomoshadir” [12; 109-111-b.]. Bayram ishtirotchilarining diqqatini tadbirlarga jalb qilish ularni faollashtirish maqsadida ov o‘yinlari ommaviylashtirilib, qo‘shiq, viktorina, ko‘rik tanlov, sport musobaqalari kabi bir necha kompleks tadbirlarni qamrab olgan. Bizning fikrimizcha, eng qadimgi davrlardan boshlaboq turli hayvonlarni ovlash, ularni tutib olish kabi ishlar otni nihoyatda tez choptirish, tezlik bilan ketayotgan otning ustida turli mashqlarni bajarish uchun epchil, baquvvat bo‘lish va tez harakat qilish zarur bo‘lgan. Bunday xususiyatlarni rivojlantirish uchun esa, doimiy tarzda sport musobaqalarida o‘ynab, chiniqish talab etilgan. Yuqorida fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, uloq-ko‘pkari, poyga kabi ot o‘yinlari mashqlarning natijasi o‘laroq vujudga kelgan.

Xalq o‘yinlari haqidagi yozma ma’lumotlarni XI asrda yashagan taniqli turkiyshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” [15; 447-454-b.] asaridan ham olish mumkin. Mazkur asarda keltirilgan ma’lumotlar xalq o‘yinlarining yuzaga kelish tarixi va evolutsiyasini o‘rganish imkonini beradi. Jumladan, turkiy qavmlar orasida to‘p bilan o‘ynaladigan qadimiy o‘yinlardan biri – “chavgon” juda ommalashgan edi. “Devonu lug‘otit turk”da bu o‘yinga taalluqli bo‘lgan quyidagi atamalar keltiriladi: “Tanguq”- chavgon o‘yinida koptokni tortilgan o‘tovdan o‘tkazganga beriladigan ipak kiyimlik, “tasal”- chavgon o‘yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq, “tobiq”- chavgon bilan uriladigan koptok, to‘p. Kattalarning chavgon o‘yini asosida “O‘t bandal” nomli bolalar o‘yini yuzaga kelgan.

“Bandal” so‘zining ma’nosи “bosh qismi cho‘qmoqli yog‘och” deb izohlanadi. Odatta, bunday cho‘qmoqli tayoq bilan chavgon o‘yinida koptok urilgan. Bolalar esa bunday cho‘qmoqli tayoqlarning uchini yondirib, kechki paytda bir-birlariga tayoqlar o‘qtalib o‘ynaganlar, shu tufayli bir qadar xavfli bo‘lgan, o‘ta ehtiyyotkorlikni talab qilgan bu o‘yin “O‘t bandal” deb atalgan. O‘yinda faqat o‘g‘il bolalar ishtirot etib, ularning qo‘rmas, jasur bo‘lib ulg‘ayishlari nazarda tutilgan. Qadimgi ajdodlarimiz bosqinch qabilalar hujumini qaytarib, o‘zlarini himoya qilishlari uchun jangu jadal sirlarini puxta egallashlari talab qilinardi. Shuning uchun qilichbozlik, nayzabozlik, o‘q otish-tirandozlik sirlarini o‘zlashtirish maqsadida turli tuman jangovar o‘yinlarni ham o‘ylab topganlar.”Agar tomosha uchun bir-ikki martaba chavgon o‘ynasang ravodir va lekin ko‘p otlig‘ bilan chiqib izdihom qilmag‘ilkim, sakkiz otliqdan ziyoda bo‘lishg‘a hojat yo‘q. Sen maydonning bir boshida turg‘il, yana bir kishi maydonning oxirida tursin. Olti kishi maydonda to‘pni ursin, Har vaqt to‘p sening tarafingga kelsa, to‘pni urg‘il va maydonning oxirig‘a surg‘il, ammo olomonning ichig‘a otmag‘il. Chavgon o‘yining yo‘li shudir. Shu bilan birga marraga yetirishg‘a muvaffaq bo‘l. Ammo urush maydonig‘a kirsang, sustkashlik qilmag‘il, darang, sustkashlik yaxshi emasdир” [12; 111-b.].

Kaykovus “Qobusnoma”da qadimgi chovgon o‘yining umumiyl qoidalari haqida batafsil ma’lumot beradi. Har bir guruhsda sakkizta otliq a‘zolar bo‘lishi, maydonni ikki tomonida ikki kishi turishi kerak ekanligini uqtiradi. Chavgon o‘yini ishtirotchilardan juda chaqqon va

serharakat bo‘lishni talab qilishini ta’kidlaydi. Ot bilan o‘ynaladigan xalq o‘yinlaridan biri uloq (ko‘pkari) ham mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq, ya’ni turkiy xalqlarda azal-azaldan bo‘ri muqaddas jonivor sifatida e‘zozlangan. Ko‘kbo‘ri qadimgi turklarning bobokaloni O‘g‘izxoniga rizq-ro‘z berish to‘g‘risida yo‘llarni ko‘rsatganligi, shundan buyon bo‘ri bilan uchrashgan kun Navro‘z, Ko‘kbo‘ri kuni ro‘schnolikka chiqqan kun bo‘lib qolganligi afsonada o‘z ifodasini topgan. Ikkinchidan, “Ko‘kboru” o‘yini “muqaddas bo‘ri” sharafiga uyuştirilganligi obrazli tarzda unga totem sifatida qaralganligini ko‘rsatadi [5; 32-b.].

Shuningdek, “Ko‘k yolli bo‘ri” chaqqon, epchil va engil harakat qilganligi, o‘z o‘ljasiga favqulorra tashlanib, imkon qadar uni qo‘ldan chiqarmasligiga ramziy ma’no berilib, uloq o‘yini unga qiyoslangan. Bu xalqlarning totemizm e‘tiqodi zamirida shakllangan bo‘lib, hatto turkmanlarning qadimgi odatlarida “Ko‘k bo‘ri” to‘y marosimlari bilan bog‘liq bo‘lib [11; 19-b.], bugungi kunga qadar “salar” va “sariq” urug‘larida yaxshi saqlangan. To‘y kuni uylanmagan yosh yigitlar, ya’ni kuyovning do‘stlari xo‘jayin oldiga borib, “Bizga Kok bo‘ri ber” deb talab qilishgan. “Ko‘k bo‘ri” ramziy ma’no ifodalab, o‘rniga sovg‘a sifatida pul, qo‘y va echkilar berilgan.

XI asrda yashagan turkiy qavmlar orasida yong‘oq bilan o‘ynaladigan o‘yin ham bo‘lgan. Bu o‘yin “Ko‘chirma o‘yin” deb ataladi. Mahmud Koshg‘ariy ayrim qabilalar tilida bu o‘yin “O‘n to‘rt” deb ham atalishini qayd etadi. Olimning yozishchicha, bolalar erga qo‘rg‘onchaga o‘xshatib to‘rt chiziq tortib, unga o‘nta eshik qilishgan. Ana shu shaklga tosh yoki yong‘oq tashlab o‘ynaganlar. To‘rt chiziq va o‘nta eshik chizilganligi sababli o‘yin nomi “O‘n to‘rt” deb atalgan bo‘lsa kerak.

Yong‘oq o‘yini hozirgi kunda ham o‘zbek bolalarining kuz-qish fasllarida o‘ynaydigan mavsumiy o‘yinlaridan biri hisoblanadi. Nazarimizda, “Ko‘chirma o‘yin” aslida yumaloq tosh vositasida o‘ynagan. Keyinchalik bu predmetli o‘yinda tosh o‘rniga yong‘oqdan foydalanish an’anasi yuzaga kelgan.

Bizningcha, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qayd etilgan bolalar o‘yinlari turi hamda bolalik davri o‘yinlari jismoniy va aqliy kuchini hamda uning tafakkurini takomillashtirib, irodasini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan o‘yinlarning genezisini yoritishda muhim manbaa hisoblanadi.

Bolalar o‘yinlari qaysi shakl, mavzu, yo‘nalishga ega bo‘lmasin, loy-tuproq bilammi, yog‘ochu kaltakmi, ipu arqon bilanmi, qaysinisi bo‘lsa ham bolani turmush ikir-chikirlari, uyo‘ro‘zg‘or va xo‘jalik ishlari, umuman katta hayotga tayyorlashda o‘ziga xos hunar maktabi rolini o‘ynagan [9; 249-b.]. Ajodolarimiz farzand tarbiyasida jismoniy mashqlarning muhim ahamiyat kasb etishini, jismonan chiniqqan bola ijtimoiy hayotning har qanday qiyinchiliklariga sabr-bardoshli bo‘lib, hayotga tayyor bo‘lishini yaxshi anglashgan. Qadimdan Sharq xalqlarining turkiy qabilalari va urug‘lari turli jismoniy o‘yinlar asosida bolalarda jamoaviylik va ijtimoiy moslashuvchanlik xususiyatlarini shakllantirish muhim omili ekanligini teran anglashgan. Shuning uchun ham qadimda bolalar o‘yinlarining turli-tuman bir nechta turi mavjud bo‘lgan. G‘. Jahongirovning ta‘kidlashchicha, “Devonu lug‘otit turk” asarida 150 taga yaqin milliy o‘yinlar haqida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, 20 dan ortiq bolalar o‘yini tavsif qilingan [6; c-27-29.].

Xalq o‘yinlari va ularning turlari haqida fikr yuritilar ekan, ko‘p ming yillik tarix davomida moddiy va ma’naviy yodgorliklarning ma’lumotiga ko‘ra, ular biror mifologik qarash va tasavvurlar bilan bog‘liqligi ayon bo‘ladi [10; 32-b.]. Ayniqsa, ot hayvoni ishtirokida uyuştiriladigan o‘yinlar insoniyatning ilk diniy e‘tiqodlari: totemizm, animizm, fetishizm tasavvurlariga borib taqalashi bilan xarakterlanadi. Xorazmdagi Qo‘yqirilgan qal‘a yodgorligidan topilgan sopol xumning bir tomoniga ot choptirib ketayotgan massagetning nayza bilan hayvonga hamlasi tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchi xumda qanotli otning tasviri tushirilgan [11; 19-b.].

Xuddi shunday tasvirlar, ya’ni otni choptirib ketayotib sher, kiyik, qoplon kabi hayvonlarni o‘ldirish, ularga hujum qilish kabi sahnalarini ilk va rivojlangan o‘rta asr tasviriy san’at asarlariida ko‘plab uchratish mumkin [4; c-46-49.]. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish lozimki, O‘rta Osiyo xalqlarida ot bilan bog‘liq bunday marosimlar to‘g‘risida tarixiy va badiiy asarlarda ham ko‘p marotaba tilga olingan. Jumladan, Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub ming yillik tarixga

ega "Shohnoma" dostonida ham mazkur odat to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Qadimiy xalq o‘yinlaridan kurashning ham xalq mifologik qarashlar ta’sirida vujudga kelganligi bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar mavjud [7; c-59-62.].

Akademik A.A. Asqarov turkiyzabon aholining o‘yin-musobaqalarini qadimiy turlaridan bo‘lgan kurashni va ot bilan bog‘liq mifologik qarashlarni quyidagicha tahlil qiladi: “Ordos to‘qasi tasvirdagi ikki pahlavon kurashining sershoh daraxtlarga bog‘langan otlar, polvonlar ustida parvoz qilayotgan qushlar manzarasi mifologik tasavvurlar zamiridan kelib chiqqan. Bir qarashda kurash jarayonidagi egarlangan otlar tasviri ortiqcha tuyulsa-da, ijodiy tahlil asosida yondashilsa, masalaga oydinlik kiritish mumkin. Ya’ni ot uning barcha sarguzashtlarida doimiy ajralmas hamrohi, beminnat yordamchisidir. Shuning uchun qadimgi dostonlarda pahlavon bilan bir safda doimo uning oti hozir turgan [2; 3-13-b.].

Ayrim xalq o‘yinlari genezisi O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi yozma manbasi “Avesto”ga borib taqaladi 81. Ma’lumki, “Avesto”da zardushtiyarda to‘rt unsur - suv, havo, tuproq va olov muqaddas sanalishi e’tirof etilgan. Qadimdan bolalar o‘yini hisoblangan “Mung‘us-mung‘us” o‘yini suvni muqaddas sanab poklanish uchun unga sho‘ng‘ish tufayli shakllangan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ot-it-turk”asarida ushbu suv bilan bog‘liq o‘yinlarga quyidagicha ta’rif keltiriladi: “Qalinguladi- kishi suv ustida qalqib turdi, bu oyoqlarini, tizzalarini harakatlantirib, suv uzra turishdir-qalingular. Suv bilan bog‘liq suvda suzish o‘yini qadimda chapsar deb atalishini ta’kidlaydi [15; 420-463-b.].

Elshunos olim Qoshg‘ariy ushbu asarida bolalarni hozirjavoblikka, tez fikrlashga, tafakkur doirasini kengaytirish bilan bog‘liq qadimiy bolalar o‘yini bo‘lgan mo‘ng‘uz-mo‘ng‘uz haqida shunday qimmatli ma’lumotni keltiradi: “mo‘ng‘iz-mo‘ng‘iz deyilgan bolalarning bir turli o‘yini. Bu shunday; bolalar tiz cho‘kib, dengiz labida o‘tiradilar. Sonlari orasiga ho‘l qum solib to‘ldiradilar. So‘ng qo‘llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri (ona boshisi) mo‘ng‘iz-mo‘ng‘iz deydi. Qolganlari-ne mo‘ng‘iz?- nimaning mo‘ng‘iz (shohi)? deb so‘raydilar. U birin- ketin shohli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. So‘ng ona boshi ular orasida tuya, eshak singari shoxi yo‘q hayvonlar otini aytib, chalg‘itadi. Bolalarning birortasi uning ketidan shoxsiz hayvonni otini aytib yuborsa, u suvgaga itarib yuboriladi” [15; 446-b.]. Bolalar o‘yinlari qaysi shakl, mavzu, yo‘nalishga ega bo‘lmashin, loy-tuproq bilanmi, yog‘ochu kaltakmi, ipu arqon bilanmi, qaysinisi bo‘lsa ham bolani turmush ikir-chikirlari, uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik ishlari, umuman katta hayotga tayyorlashda o‘ziga xos hunar maktabi rolini o‘ynagan. Chunki, bolalar ham o‘z ota-onalari qatorida turib, ijtimoiy-maishiy hayotda, xususan, ishlab chiqarishning talay jahbalarida o‘z imkoniyatlari va iqtidorlari doirasida qadim zamонлардан buyon qatnashib kelganlar. Xullas, kattalar uyuştirgan turli-tuman marosimda qatnashganlar, ular qo‘sish kuylasa, jo‘r bo‘lganlar, birgalikda raqs tushganlar. Bunday aralashuv bolalarning hayot voqealariga o‘z munosabatlarini ifodalash yo‘sini ham ola boshlagan. Bu jarayon bolalar uchun goh o‘yin tarzida kechsa, goh majburiy mehnat shaklida kechgan, o‘yin tarzida kechganida bolalar ehtiroslarga to‘lib-toshib, o‘z zavqlarini jo‘shqin va samimiyl ohanglarda kuylaganlar; majburiy mehnat tarzida kechganida esa, og‘ir mehnat tufayli horg‘in va alamli tuyg‘ularini g‘amgin shaklda ifoda etganlar. Qadimda faqat qizlar uchun ham maxsus o‘yinlar bo‘lgan; “yanqu- joriyalar o‘ynaydigan bir turli o‘yin nomi. Tartibi shundayki, arqonning ikki uchi bir daraxtga yoki ustunga bog‘lanadi. So‘ng ularning biri arqon o‘rtasiga o‘tiradi, oyoqlarini sakratib, ba’zan yuqori, ba’zan quyi tushib uchadi” [15; 420-463-b.]. Ushbu o‘yining yana bir turi mavjud bo‘lib, yalingular deb atalgan. Bu o‘yin ham qizlar uchun bo‘lib, ikki tomoni ikki narsaga bog‘langan arqonda o‘ynaydi, arg‘imchoq uchadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Xulosa qilib aytganda xalq orasidagi o‘yinlar doimiy, mavsumiy, hatto shahar-qishloqlarga, katta va kichik yoshlarga, kunduzgi va tungi xarakterga egadir. Bundan tashqari o‘yinlarni ularda ishtirok etadiganlar sirasiga qarab, bolalar, o‘smirlar, yoshlar, qizlar, ayollar va erkaklar o‘yini kabi turlarga ajratish mumkin. O‘yinlar, shuningdek, ifoda vositalariga qarab so‘zli, qo‘sishli, raqsli, harakatli, musobaqaviy ethnografizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘p o‘rinlarda o‘yinlarni bolalar va o‘smirlar hamda katta yoshdagil kishilar uchun mo‘ljallangan o‘yinlarga ajratish taomilga kirgan. Katta yoshdagil kishilar uchun uloq (ko‘pkari) va shavqi baland o‘yinlardan qo‘chqor, it, xo‘roz urushtirish, oshiq o‘yini kabilari

mansubdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алексеев Н.М.Организация работы в объединенных коллективах физической культуры. Москва. Наука. 1971.С-132.
2. Asqarov A.A. O'zbek milliy kurashining arxeologik materiallarda aks etishi. Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. // Karim SHoniyofov o'qishlari turkumidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2-qism. – Toshkent: 2005. – B. 3-13
3. Azizov N.X. Belbog'li Turkiston kurashi. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – B. 5-6.
4. Беленський А.М. Монументалое исскуство Панжкента. Москва. Искусство.1973.с-46-49.
5. Душекеев Т. Кок бору кылымадарды кариткан ойин, Кок бору кылмдарды карытаар ойин.Кок бору.1999.№ 5.24-август.
6. Джахангиров Г. Узбекский детский игровой фольклор. // Фольклор, литература и история Востока. Материалы III всесоюзной тюркологической конференции. – Ташкент, 1984. – С. 27-29.
7. Жикиев А.Традиционные Туркменские праздники, развиличение и игры. Ашхабад: ЫЛЫМ, 1983.С-59-62.
8. Зисман Н.В. Физкультура и спорт в Узбекистане. Ташкент 1956.С-120.
9. Ishoqov B.B. Bolalaro'yinlarining etnografik xususiyatlari//O'zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent-Namangan, 2007. – B. 249.
10. Йулдошев С.В. Фаргона водийси аҳолисининг халқ ўйинлари. Тарих фан бўй. фалс докт.дисс.автореферати.Тошкент. 2019.
11. Йулдошев С.В. Узлуксиз таълим-тарбия жараёнида халқ ўйинларининг илмий-педагогик асослари. Монография. Фаргонаю 2020. Б-19.
12. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent. O'qituvchi. 2018.b-109-111.
13. Ковалов Ю.А. Физическая культуры и спорта. Ташкент. 1956. С-120.
14. Культура и искусство деревного Узбекистана.Каталог выставки Т.1.-Москва; 1991. рис.275: Т. 2.-с.58. рис.456.
15. Qoshg'ariy M.Devoni-lug'otit-turk. Toshkent. G'afur G'ulom 2017. B-420, 463, 446, 452, 463.
16. Qoraboev U. O'zbek xalq o'yinlari. – Toshkent: San'at, 2001. – B.6-7., 24-25.
17. Лесгофт П.Н. Руководство по физическому образованию дети школьного возраста 2-е.изд.1909. С.103.
18. Непомнин В.Я. Очерки по истории социалистического строительство в Узбекистане. (1917-1937). Ташкент 1957.С- 218.
19. Суник А.Б. Развитие физической культуры в общеобразовательных школах Узбекистана за 50 лет. Автореф. Дисс.канд.пед.наук. Львов 1963.
20. Фирцов В. Туркестан и Туркестанский породи лошаей. Туркестанский сборник.1895.Т.с-479.
21. Шодомиский Ю.С. Физическая культура и спорт в Узбекистана за 40 лет советской власти(1917-1957гг.) Автореф. Дисс.канд.пед.наук. Ташкент 1960. С-25.
22. Шодомиский Ю.С. Физическая культура и спорт в Советской Средней Азии и сопредельных страна. Автореф. Дисс.докт.пед.наук. Ташкент. 1972. С-32.